

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ANIQLIK HODISASINI IFODALASHDA GRAMMATIKALIZATSIYANING O'RNI

*A.A.Shermatov*¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada aniqlikning grammatik kategoriyasi va uning grammatiklashgan ko'rsatkichlari haqida so'z yuritiladi. Ingliz tilida aniqlikni ifodalash uchun grammatik vosita sifatida aniq va noaniq artikllar qo'llaniladi, o'zbek tilida esa artikkel mavjud emas. Har ikkala tilda ham ko'rsatuv olmoshlari aniqlikni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ko'rsatuv olmoshlarining grammatiklashuv jarayonidagi, ya'ni ular deiktik funksiyalardan morfologik ko'rsatkichlarga aylanishidagi roli ilmiy manbalar asosida tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: aniqlik, grammatikalizatsiya, olmosh, ko'rsatish, artikkel, diskurs, deyktik, demonstrativ.

doi: <https://doi.org/10.2024/dpsdpj59>

Aniqlikning grammatik kategoriyasi tildagi aniqlikning grammatiklashgan markerlari hisobiga bog'liq. Misol tariqasida, ingliz tilida aniq va noaniq artikllarning qo'llanilish holatlari. Biroq, o'zbek tilida artikkel mavjud emas. Artikllardan tashqari, ham ingliz ham o'zbek tillarida aniqlikning funksional-semantik kategoriya sifatida leksik-sintaktik yondashuvlarning jarayonlashuvida ko'rsatish olmoshlari ham qo'llanilishi tabiiy. Ya'ni ingliz tilida aniqlikni ifodalashda nafaqat aniq artikkel balki ko'rsatish olmoshlari ham matnda aniqlikni voqelanishiga asos bo'la oladi. Shuningdek, o'zbek tilida ham ko'rsatish olmoshlari orqali aniqlikni ifodalashdagi matn mazmun-mohiyatida o'rni beqiyos.

Ko'rsatish olmoshlari ko'p hollarda tilshunoslar tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelgan. Ko'rsatish olmoshlari to'g'risida mufassal ma'lumotlar sirasiga K.E.Maytinskaya, Dj.Layonz, K.Byuler, X.Dissel, Dj.Grinberg, Ye.M.Volf, Ye.V.Paducheva kabi olimlarning olib borgan tadqiqot ishlarini misol qilsa bo'ladi. Respublikamizda ham o'zbek tili orqali boshqa tillarni qiyosiy o'rgangan holda ko'rsatish olmoshlari bo'yicha aniq nazariy fikrlarni bera olgan olimlarimizdan Sh.S. Safarov, S.R.Raximov, B.H. Davlatova kabilarning monografiya va ilmiy asarlarida mazkur masala atrofida ilmiy fikrlar namoyon bo'lgan.

Ko'rsatish olmoshlari aniq artikllardan ikkita asosiy mezonlar orqali farqlanadi. Birinchisi, aniq artikkel ad'ektiv qo'llanilishni o'z ichiga olsa, ko'rsatish olmoshlari qoidaga ko'ra, ad'ektiv, pronominal va adverbial holatlarda qo'llanilishi mumkin. Ikkinchidan, tilda ko'rsatish olmoshlarining asosiy funktsiyasi – bu ularning deyktik vazifalarga ega bo'lishida namoyon bo'ladi. Ko'rsatish olmoshlari diskursning makon-zamon kontinuumida nutqiy harakat ishtirokchilaridan ularning joylashgan masofasiga nisbatan joylashadi hamda aniqlaydi.

Artikllar mavjud bo'lgan barcha tillarda artikkel atamasi demonstrativlardan kelib chiqqanligi diaxronik ravishda isbotlanganligi ma'lum. K.Layonz bu holatdagi grammatikalizatsiyaning manbasi deyktik neytral demonstrativlar yoki proksimalsiz (bevosita uzoqda turgan ob'ektlar) yoki birinchi shaxsni ko'rsatmagan holatlar bilan qamrab olinadi deya izohlagan [Layonz Dj., 1978:116]. Artikllarning ko'rsatish olmoshlaridan muhim farqlaridan biri bu ularning nutqda urg'uning joylashish holatlariga ko'ra ham ko'zga

¹ *A.A.Shermatov, SamDChTI dotsenti*

tashlanadi. Artikllarning demonstrativlardan kelib chiqqan deyilishiga yana bir omil shuni ifodalaydiki, ko'rsatish olmoshlarining bir xil yoki juda yaqin bo'lgan urg'u orqali farq qiladigan holati bilan ham belgilanishi mumkin. Misol sifatida nemis tilidagi der urg'usiz artikli deytik neytral bilan bilan bir xil xizmat qiladi, biroq der demonstrativining urg'uli holati bundan mustasno. Dj.Grinberg o'zining "How does a language acquire gender markers?" maqolasida ko'rsatish olmoshlarini aniq artiklga grammatikalizatsiyalashish jarayonini tasvirlagan [Greenberg J. H., 1978:48]. Ye.S. Gorodova esa ushbu turdagi jarayonning dastlabki darajasi grammatikalizatsiyalashadigan elementning noan'anaviy qo'llanilishi orqali xarakterlanadi deya fikr bildirgan [Gorodova Ye.S., 2014:56-58]. Bunda leksik birliklar qo'shimcha grammatik yuklamalarni kiritishni boshlaydi. Leksik birliklar orqali grammatikalizatsiyaning tezlashish borasida yangidan-yangi kontekstlarni vujudga keltiradigan yangi grammatik mohiyat asosida mustahkamlanadi. Dj.Grinberg grammatikalizatsiya jarayoni avvaldan diskursda zikr qilingan deytik element to'liq elementni identifikatsiya qilishni boshlagan vaqtida amalga oshirilishini izohlagan [Greenberg J. H., 1978:61-62]. Dj. Grinberg tomonidan berilgan izohni ya'ni grammatikalizatsiya jarayonining darajalanishini quyidagicha ko'rinishda ifodalash mumkin:

Dj.Grinbergning fikridan farq qilgan holda X.Dissel o'zining "Demonstratives: Form, Function and Grammaticalization" asarida anaforik demonstrativlarning aniq artikllarga aylanishida ularni qo'llanilishida notematik antetsedentlar bundan oldingi diskursdagi ko'plab referentlarga tegishliligi bilan ishora qilinadi deya ta'rif bergan. Mazkur holatdagi shakllanish jarayonida demonstrativlar deytik funksiyalarini yo'qotib o'z navbatida aniqlikning formal markerlariga aylanadi [Diessel H., 1999:128-129]. Bu holat aniqlikning markerlari hisoblanib ko'rsatish olmoshlari va aniq artikllar jarayonning birinchi qismida deytik komponentning mavjudligi va yakunida mavjud bo'lmaslik jihatlari bilan farqlanadi.

Demak, demonstrativlarning aniq artiklga grammatikalizatsiyalashuv jarayoni deytik element rolining bosqichma-bosqich qisqarib borishi ko'pincha fonologik reduksiya bilan birga morfologik va grammatik avtonomiyaning yo'qotilishi bilan yakunlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Лайонз Дж. Введение в теоретическую лингвистику. – М.: Прогресс, 1978. –С.116.

[2]. Greenberg J. H. How does a Language Acquire Gender Markers? // *Universals of Human Languages*. -Stanford: Stanford University Press, 1978. Vol. 3. – P. 48-62.

[3]. Городова Е.С. К вопросу о тождественности/нетождественности полных и стяженных форм полумодальных глаголов современного английского языка и перспективах их развития в контексте грамматикализации // *Филологические науки. Вопросы теории и практики* / № 8(38). Ч.1., 2014. – С.56-58.

[4]. Diessel H. *Demonstratives: Form, Function and Grammaticalization*. – Amsterdam: John Benjamins, 1999. –P.128-129.

[5]. Шерматов А. Илмий матнларда дейктик ҳаволаларнинг прагматик хусусиятларига доир // *Иностранная филология: язык, литература, образование*. – 2018. – Т. 3. – №. 3. – С. 68